

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqto'v O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

TRANSFORMATION OF PERSONAL SPIRITUALITY AND THE PROBLEM OF ALIENATION IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Eshmurodov Nabillo

Teacher, Department of Sociology and Social Work, Faculty of Psychology and Social and Political Sciences, Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract. This article analyzes the phenomenon of spiritual alienation from a scientific and philosophical perspective in the context of globalization and digital civilization. It demonstrates that the weakening of cultural boundaries, the rise of mass culture, and the influence of the digital environment lead to alienation from one's spiritual identity. This is substantiated by the fact that the erosion of spiritual and moral values negatively impacts personal identity and social stability. The subject, object, and means of alienation are examined, and the role of technological development in its intensification is emphasized.

Keywords: spiritual alienation, globalization, digital environment, mass culture, cultural identification, moral values, existential crisis, social isolation, cultural transformation, personal essence, spiritual stability.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVIYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI

Eshmurodov Nabillo

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: nabillo.eshmurodov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv va raqamli tsivilizatsiya sharoitida shaxsning ma'naviy begonalashuvi fenomeni ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Madaniy chegaralarning zaiflashuvi, ommaviy madaniyatning kuchayishi va raqamli muhit ta'siri insonning ma'naviy o'zligidan uzoqlashuviga olib kelishi ko'rsatiladi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining izdan chiqishi shaxs identifikatsiyasi va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir qilishi asoslanadi. Begonalashuvning subyekt, obyekt va vositalari izohlanib, uning kuchayishida texnika-texnologiya rivojining o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy begonalashuv, globallashuv, raqamli muhit, ommaviy madaniyat, madaniy identifikatsiya, axloqiy qadriyatlar, ekzistensial krizis, ijtimoiy izolyatsiya, madaniy transformatsiya, shaxs mohiyati, ma'naviy barqarorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N29>

Kirish. Globallashuv XXI asrda insoniyat taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biri sifatida jamiyatning barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniy – siyosiy ochiqlik va iqtisodiy integratsiya jarayonlari insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va ma'naviy mohiyatini yangi sharoitga moslashishga majbur etmoqda. Shu bilan birga, globallashuv shaxs ma'naviyatidagi o'zgarishlarni tezlashtirib, uning o'z-o'zini anglashi, madaniy identifikatsiyasi va ijtimoiy

munosabatlardagi rolini qayta shakllantirmoqda. Bu jarayonning eng muhim oqibatlaridan biri — ma'naviy begonalashuv fenomeni hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy globallashuv va raqamli sivilizatsiya sharoitida inson ma'naviyatining transformatsiyasi, uning ichki dunyosi va ijtimoiy mohiyatida yuz berayotgan o'zgarishlar falsafa, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik uchun dolzarb muammoga aylandi. Tezkor axborot oqimi, virtual muhitning kengayishi va texnokratik munosabatlar inson ongida begonalashuv jarayonlarini kuchaytirib, shaxsning ma'naviy tayanchlarini zaiflashtirmoqda.

Ma'naviyat insoniyatning ma'naviy qadriyatlari, ma'no izlash qobiliyati, ijtimoiy-axloqiy normalar va madaniy asoslar majmuasini anglatadi. Begonalashuv esa subyektning o'z mohiyatidan, jamiyatdan, madaniyatdan yoki o'z ongidan chetlashishini ifodalaydi. Ma'naviy begonalashuv insonning ma'no, qadriyat va maqsadlar bilan bog'liq ichki muvozanatini yo'qotishi, o'z-o'zidan yiroqlashishi, madaniy manbalarga befarq bo'lib qolishi bilan xarakterlanadi.

Falsafada bu jarayon Gegelda ruhning o'z-o'ziga qaytishi uchun zarur bosqich sifatida, Marksda esa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning maxsuli sifatida, ekzistensializm da insonning o'z mohiyati va mavjudlik ma'nosidan uzoqlashuvi sifatida talqin qilinadi.

K.G.Yung nazariyasiga ko'ra begonalashuv zamonaviy jamiyatda yaqinlashib kelayotgan falokat darajasiga aylanmoqda [1]. Begonalashtirish masalalari E.Fromm nazariyasida ham muhim o'rin tutadi, u tarixiy jarayonning keyingi yo'nalishini ikki qarama-qarshi, ammo bir-biriga bog'liq jihatlar — begonalashtirish va erkinlikni belgilaydi, deb hisoblaydi. Bu uning "Ozodlikdan qochish: inson o'zi uchun" asarida tahlil qilinadi.

Taraqqiyot bilan erkinlik doimiy ravishda oshib borishiga qaramay, shaxsning ham olamdan uzoqlashish darajasi oshib boradi [2]. E.Fromm "begonalashtirishning ekzistensial jihatiga e'tibor qaratib, —Begonalashuv barcha qadriyatlarni qayta baholash jarayoniga olib keladi" deydi. E.Frommning qarashlarida aksariyat insonlar begonalashuv hodisasini shaxsning subyektiv holati yoki jamiyatdagi obyektiv pozitsiyasi ekanligini tushunishmaydi. Bu so'z aytilganda, odamlar unga hayrat va qo'rquv bilan qarashadi. Kimlardir uchun bu shunchaki haddan ziyod bir tomonlama fanatik qarashlar bilan bog'liq assosiatsiyalar natijasida kelib chiqadigan stereotiplardir.

E.Frommning fikriga ko'ra, —begonalashuv so'zi dastlab ruhiy kasal (insane – aqldan ozgan) inson ma'nosini anglatgan. Fransiyada "aliene" va Ispaniyada esa "alienado" – bu mutlaq begonalashgan, psixotik insonni belgilash uchun ishlatilgan eski atamalardir [3]. Begonalashuv g'oyasini qayta anglash uchun irratsionalizm, freydizm, ekzistensializm g'oyalari ham xizmat qildi. F.Nitsshening fikriga ko'ra begonalashuvni paydo bo'lishining muhim sabablari, o'z asoslariga ko'ra qaramlik hukmron bo'lgan axloq normalarida deb bilgan. Uning fikriga ko'ra bunga yorqin misol xristian dinidir, chunki har qanday ko'rinishdagi e'tiqod o'zidan voz kechish, o'zidan begonalashishidir. Begonalashuv muammosini tahlil qilish jarayonida F.Nitsshe inson erkinligi muammosiga alohida e'tibor qaratib, erkinlikni eng oliy insoniy qadriyat sifatida ajratadi, unga erishgach esa inson yuqori darajadagi mas'uliyatni talab qiladigan qaror qabul qilishning eng qiyin tanloviga duch keladi.

Erkin inson haqida F.Nitsshe shunday yozadi, uzoq, sinmaydigan iroda sohibi bo'lgan, o'z tasarrufida uning ham shaxsiy qadr o'lchovi bor, u o'z hurmatini ham va boshqalarga nisbatan nafratlanish o'lchovini ham o'zi belgilaydi [4]. Uning fikricha, kishilarning ozod va

qullarga bo'linishi saqlanib qolgan, chunki o'zi uchun kunning uchdan ikki qismiga ega bo'lmagan shaxs o'z mavqeyi va kasbidan qat'i nazar, qul hisoblanishi kerak. F.Nitsshe o'zining "Axloqning mohiyati" asarida begonalashuv muammosiga munosabatini aks ettiruvchi satrlar bilan boshlaydi: "Biz o'zimizga begonamiz, buning o'ziga xos sababi bor. Biz o'zimizni hech qachon izlamaganmiz, bir kun kelib o'zimizni topishimiz mumkin". Biz zaruratga ko'ra o'zimizga begona bo'lib qolamiz, biz o'zimizni tushunmaymiz, biz o'zimizni boshqalar bilan aralashtirishimiz kerak, chunki biz uchun mavqe abadiy: Har kim o'ziga nisbatan ko'proq uzoq – o'zimizga nisbatan biz –bilguvchi emasmiz..." [5].

F.Nitsshe shaxsning jamiyatdan ajralib qolishi jarayonida yolg'izlikni his qilishini turlicha baholagan. Bir tomondan, u yolg'izlikda shifo, "Men"ini o'zlikka qaytishini ko'radi va qayd etadiki: –mening barcha Zardushtiyligim yolg'izlikka, yoki agar anglasam, poklikka tegishli [6].

Muhokama. Globallashuv jarayoni madaniyatlar o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni zaiflashtirib, yagona umumjahon madaniy makonining shakllanishiga zamin yaratmoqda. Bu jarayon nafaqat axborot va texnologiyalarning erkin almashinuvi, balki simbolik, qadriyatli va ma'naviy tartiblarning transformatsiyasi bilan ham xarakterlanadi. Ommaviy madaniyatning ta'sir doirasi kengayayotgani holda, uning standartlashgan, tijoratlashgan va ko'p hollarda yuzaki shakllari mahalliy madaniy an'analarning o'ziga xosligini so'ndirishga moyildir. Natijada madaniy tajribalarning bir xillashuvi (gomogenizatsiyasi) kuchayib, madaniy xilma-xillikning barqarorligi xavf ostida qoladi.

Shu bilan birga, insonning ma'naviy dunyosi turli madaniy ta'sirlar oqimida yangi, ko'p qatlamli va ko'p markazli voqelikka duch keladi. Global axborot maydonida doimiy ravishda o'zgarib borayotgan qadriyatlar sistemasi shaxsning ma'naviy hududini beqarorlashtirishi, uning identifikatsiya jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Cheksiz madaniy signallar, obrazlar va g'oyalar oqimida shaxs o'zining aniq ma'naviy yo'nalishini topishda qiyinchilik sezadi, bu esa uning axloqiy mezonlar, hayotiy maqsad va ruhiy barqarorlik haqidagi tasavvurlarida noaniqlikka sabab bo'ladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, bunday holat madaniyatning "ma'no manbalari"ning tarqoqlashuvi va insonning o'z madaniy mohiyati bilan aloqasining susayishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Sotsiologik tahlil esa bu jarayonni global madaniy industriya, media texnologiyalar va transmilliy qadriyatlar majmuasi ta'siridagi yangi turdagi begonalashuv sifatida ko'radi. Inson o'zining tarixiy, milliy va ma'naviy ildizlaridan uzilib qolmasligi uchun barqaror madaniy asoslar, tanqidiy fikrlash va ma'rifiy immunitet kabi omillarning rivoji alohida ahamiyatga egadir.

Bizning nazarimizda globallashuv sharoitida shaxsning ma'naviy begonalashuvi insonni tevarak-atrofni ongli tarzda idrok qilish, o'zining qarashlari orqali individual va ijtimoiy mavjudlikni asosi bo'lgan ma'naviy-axloqiy, madaniy, diniy va boshqa qadriyatlar orqali fikr yurita bilish, o'z-o'zini ongli tarzda anglay olish, erkinlikni qadriga yeta bilishlik, nohaqliklarga qarshi ongli tarzda kurasha bilishlik kabi imkoniyatlarni beruvchi yuksak qobiliyat va integral sifatning yo'qolishidir. Yana bunga boshqacha ta'rif bersa ham bo'ladi. Shaxsning ma'naviy begonalashuvi inson xarakterida mujassam bo'lgan ijobiy sifatlar, uning botiniy va zohiriy dunyosining mukammalligi, iymon-e'tiqodining butunligi-yu, vijdonining uyg'oqligi, ongli tarzda barcha qarashlarining o'rnini, salbiy sifatlar egallab, johillik xislatlari insonning butun

vujudini qamrab olishi va o'ziga bo'ysundirishi natijasida insonda shakllangan yuksak qobiliyat va integral sifatlarining jaholat yo'lida xizmat qilishidir

Natijalar. Shaxsning o'z milliy, madaniy va ma'naviy o'zligidan uzoqlashishi global modernning eng muhim va salbiy oqibatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Global media-maydon, transmilliy axborot oqimi va ommaviy madaniyat bosimi ostida inson o'zining an'anaviy qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishga, ayrim hollarda esa ulardan voz kechishga majbur bo'ladi. Madaniy meros, tarixiy xotira va ma'naviy tayanch nuqtalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi sharoitda, shaxs ularning ta'sirini sekin-asta yo'qotib boradi va o'rniga ko'pincha noaniq, barqaror emas, tez o'zgaradigan qadriyatlar tizimiga moslashishga harakat qiladi. Bu jarayon madaniy-sivilizatsion identifikatsiyani murakkablashtiradi, shaxsning o'zini anglash mexanizmlarida ichki ziddiyatlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Globalashuvning yangi bosqichi – raqamli transformatsiya – mazkur muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Internet muhiti, ijtimoiy tarmoqlar va virtual kommunikatsiya shakllari inson faoliyatida real ijtimoiy munosabatlarning o'rnini egallamoqda. Virtual aloqalarning mexanik, tezkor va yuzaki xususiyati insonning muloqot madaniyati, empatiya qobiliyati va jamoaviy birlik hissiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muloqotning raqamlilashuvi jismoniy hozirlik, ruhiy qo'llab-quvvatlash va tajribalarning haqiqiy bo'lishini kamaytiradi, natijada shaxsning ijtimoiy realiga bo'lgan hissi so'nib boradi.

Bunday uzoqlashuv ruhiy izolyatsiyaning kuchayishi, ichki yolg'izlikning o'sishi, hayot ma'nosini yo'qotish tendensiyalari, turg'unlik va beqarorlik hissining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ekzistensial falsafada ta'kidlanganidek, insonning o'z mohiyatidan uzilishi uning mavjudlik ma'nosini yo'qotishi bilan chambarchas bog'liq. Raqamli muhitda inson ko'pincha simulyativ tajribalar, media-obrazlar va virtual obrazlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, bu esa uning o'z haqiqiy "Men"i bilan uchrashish imkoniyatini cheklaydi. Ekzistensial krizisning kuchayishi, emotsional charchoq, psixologik beqarorlik va ijtimoiy fragmentatsiya zamonaviy jamiyat uchun tizimli muammolar darajasiga ko'tarilib bormoqda.

Shu bilan birga, raqamli muhit insonda "qobiqli identifikatsiya" — ya'ni tashqi obrazlarga asoslangan, barqaror bo'lmagan o'zlik hissini shakllantirishi mumkin. Bu holat shaxsning ichki mohiyati va tashqi virtual obrazi o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirib, begonalashuvning yangi turlarini yuzaga keltiradi. Natijada inson nafaqat jamiyatdan, balki o'z ruhiy olami, ma'naviy tayanchlari va hayotiy maqsadlaridan ham uzoqlashib borishi ehtimoldan xoli emas.

Shaxsning ma'naviy begonalashuv holati murakkab tuzilishga ega bo'lib, u bir qator tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, begonalashuv subyektlari — bu ma'naviy begonalashuv jarayonini ma'lum maqsadlar, g'oyaviy yondashuvlar yoki manfaatlar asosida tashkillashtirayotgan, uning rivojlanishiga shart-sharoit yaratayotgan tashqi kuchlardir. Ular siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy yoki madaniy markazlar sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, ma'naviy begonalashuv obyektlari — bu ushbu ta'sir natijasida o'z ma'naviy-axloqiy va madaniy o'zligidan uzoqlashib borayotgan shaxslar yoki guruhlardir. Begonalashgan subyekt o'zining qadriyatlar tizimini yo'qotib, o'zligini anglash mexanizmlarida izdan chiqishni boshlaydi.

Uchinchidan, begonalashuv vositasi sifatida ruhiy, axborotiy, mafkuraviy yoki hatto jismoniy ta'sir shakllari ishtirok etadi. Texnologiyalar, ommaviy madaniyat obrazlari,

manipulyativ media vositalari va raqamli muhitdagi simulyativ munosabatlar bu jarayonning asosiy yo'naltiruvchi kuchlaridan hisoblanadi.

Shaxsning ma'naviy begonalashuvi holatining rivojlanishi globallashuv jarayoni bilan bevosita bog'liq. Global madaniy almashinuvning tezlashuvi, ommaviy madaniyatning cheksiz ta'siri, axborot oqimining ustuvorligi va madaniy me'yorlarning bir xillashuvi barcha xalqlar va millatlarning ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir natijasida milliy madaniyat va ma'naviyatning o'ziga xos jihatlari susayib, shaxsning identifikatsiyasida beqarorlik paydo bo'ladi.

Shaxs ma'naviy begonalashuvining o'sishiga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil — zamonaviy texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishidir. Raqamli kommunikatsiya vositalari, sun'iy intellekt, virtual muhitlar va media texnologiyalar insonning real tajribasini qisqartiradi, uni virtual modellar bilan almashtiradi. Natijada insonning axloqiy anglash qobiliyatiga, ma'naviy dunyosiga va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatida yuzakilik, fragmentatsiya va instrumentallik kuchayadi.

Shunday qilib, shaxs ma'naviy begonalashuvi turli sotsiomadaniy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi va uning avj olishi global modern, texnokratiya va raqamli sivilizatsiyaning dinamikasidan kuchli ravishda ta'sirlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalq ma'naviyatini izdan chiqarishga qaratilgan turli ichki va tashqi ta'sirlar jamiyatning ma'naviy barqarorligiga jiddiy xavf soladi hamda shaxsdagi ma'naviy begonalashuv jarayonlarining avj olishiga zamin yaratadi. Bunday begonalashuv, avvalo, insonning o'z qadriyatlari, ma'naviy tayanchlari va axloqiy mezonlaridan uzoqlashuviga, jamiyat bilan ma'naviy aloqalarning susayishiga olib keladi.

Globallashuv sharoitida shaxsning ma'naviy begonalashuvi ijtimoiy, madaniy va axborot oqimlarining haddan tashqari tezlashuvi natijasida yanada chuqurlashib bormoqda. Axborot makonining cheksizligi, ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi va raqamli muhitning inson ruhiy dunyosiga bevosita ta'siri shaxsda ma'no yo'qotish, nomuvofiq identifikatsiya va madaniy o'zlikdan uzoqlashish kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ma'naviy begonalashuvning chuqurlashuviga jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning ma'naviy yo'nalishlaridagi qarama-qarshiliklar, madaniy va axloqiy mezonlar birligining zaiflashishi ham ta'sir ko'rsatmoqda. Qadriyatlar tizimidagi parchalanish shaxsning axloqiy va ma'naviy barqarorligiga salbiy ta'sir qilib, uning ichki dunyosida murakkab ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yung, K.G. Affekt tsivilizatsii / K.G. Yung, M. Fuko. Matritsa bezumiya. – M.: Algoritm, 2007. – S. 11-136.
2. Fromm, E. Begstvo ot svobodi: chelovek dlya sebya: Per. s angl. / E. Fromm. – M.: AST, 2006. – 571 [5] s.
3. Fromm E. 1964. The Sane Society // Alienation. The Cultural Climate of Our Time. Vols. 1-2. / Ed. by G. Sykes. New York: George Braziller, Vol. I: 67-88.
4. Nitsshe F. K genealogii morali // Nitsshe F. Sochineniya: v 2-x t. M.: Misl, 1996. T. 2. S. 407-525.
5. Nitsshe F. Ecco Home. Kak stanoviyatsya samim soboy // Nitsshe F. Sochineniya: v 2-x t. M.: Misl, 1996. T. 2. S. 693-770.
6. Nitsshe F. Tak govoril Zaratustra // Nitsshe F. Sochineniya: v 2-x t. M.: Misl, 1996. T. 2. S. 5-238.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).